

**“SUN’IY INTELLEKTNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI:  
DOLZARBLIK, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**Mirzayeva Zuxra-bonu Turakulovna**

*Toshkent Davlat Agrar Universitet*

*„Yurisprudensiya” yo’nalish 2-kurs talabasi*

*[Mobil: +998909652805.mirzayevazuxrabonu@gmail.com]*

**Annotatsiya :** *Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanish jarayonida yuzaga kelayotgan huquqiy muammolar tahlil qilinadi. Jumladan, SI’ning javobgarlik, shaffoflik, diskriminatsiya va shaxsiy ma’lumotlar bilan bog’liq tahdidlari ko’rib chiqiladi. Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan “AI Act” hujjati asosida xalqaro tajriba o’rganilib, O’zbekiston huquqiy tizimi uchun takliflar ishlab chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar :** *O‘zbek tilida: sun’iy intellekt, huquqiy tartibga solish, shaxsiy ma’lumotlar, algoritmik javobgarlik, AI Act*

**Аннотация :** *В данной статье анализируются правовые проблемы, возникающие на фоне стремительного развития технологий искусственного интеллекта (ИИ). Рассматриваются такие угрозы, как ответственность, прозрачность, дискриминация и защита персональных данных. На основе "AI Act", принятого Европейским Союзом, изучается международный опыт и выдвигаются предложения для правовой системы Узбекистана.*

**Ключевые слова:** *искусственный интеллект, правовое регулирование, персональные данные, алгоритмическая ответственность, AI Act*

**Annotation :** *This article analyzes the legal issues emerging amid the rapid development of artificial intelligence (AI) technologies. It explores risks such as accountability, transparency, discrimination, and personal data protection. Based on the European Union's "AI Act," international experience is reviewed and recommendations are proposed for Uzbekistan's legal system*

**Key words:** *In English: artificial intelligence, legal regulation, personal data, algorithmic liability, AI Act.*

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish jadal rivojlanib , o‘z dolzarbligini kundan kun orttirib , inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib , sog‘liqni saqlashdan tortib, sud-huquq tizimigacha keng qo‘llanilmoqda. Shunga qaramay, ushbu texnologiyalarni huquqiy tartibga solish borasida aniq va yagona yondashuvlar mavjud emas. Bu esa SI ni ishlatilishida ko‘plab xavf-xatarlar va huquqiy bo‘shliqlarning yuzaga chiqishiga sabab bo‘ladi. Mazkur maqola SI ni huquqiy tartibga solish zaruriyati, asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qiladi.

Sun‘iy intellekt insoniyat tarixidagi eng inqilobiy texnologiyalardan biri sifatida shakllanmoqda chunki u orqali ko‘plab yo‘nalishlarda xususan tibbiyot, huquq, qishloq xo‘jaligi, ta‘lim moliyaviy xizmatlar , transport va xavfsizlik sohalarida amaliy ahamiyat kasb etmoqda va bu orqali sohalar universallik asosida faoliyat yuritmoqda. SI hozirda insonlar kabi o‘ylay olishi bilan birga milliardlab ma‘lumotlarni bir necha soniyalarda osongina topib tahlil qila oladi hattoki hissiy jihatlama insonlarga dalda ham bera oladi , shu boisdan u tibbiy tashxislar qo‘yishda moliyaviy qarorlar qabul qilishda shu bilan birgalikda jinoiy ishlarda tahlilni o‘tkazilishda insonlarni yuzini tanish va dalillarni to‘plashda ham o‘z faoliyatini natijasini ko‘rsatmoqda . Lekin bu holatlar bir necha muammolarga sabab bo‘ladi bu to‘g‘risida Yevropa Ittifoqi 2021 -yilda qabul qilgan sun‘iy intillekt to‘g‘risidagi qonunida batafsil keltrilgan . Ushbu qonun Yevropa Ittifoqini sun‘iy intillektni tartibga soluvchi birinchi davlatlar guruhiga aylantirdi , bu esa sog‘liqni saqlash , transport, ishlab chiqarish va barqaror energiya kabi innavatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va ularda foydalanish uchun kelajakda yaxshi sharoitlarni yaratiga qaratilgan. Ushbu qonunda SI dan foydalanish borasidagi xavflar bir necha guruhlariga ajratilgan bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

„Qabul qilib bo‘lmaydigan xavf – bu eng yuqori xavf darajasi bo‘lib ushbu darajani Yevropa Ittifoqining qadriyatlari va asosiy huquqlariga mos kelmaydigan sakkiz (dastlab to‘rt) turdagi sun‘iy intellekt dasturlarini o‘z ichiga oladi. Ularga quyidagilar kiradi: 1. Ongning manipulyatsiyasi: ularga odamlarning ongiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan, va odamning xatti-harakatlarini bilmasdan o‘zgartirish dasturlar kiradi. Masalan, odamlarni ma‘lum bir siyosiy partiyaga o‘zlari bilmagan yoki roziligisiz ovoz berishga majbur qiladigan tizim. 2. Zararli xatti-harakatlarga olib keladigan odamlarning zaif tomonlaridan foydalanish: ularga ijtimoiy yoki

iqtisodiy ahvol, yosh, jismoniy yoki aqliy qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, bolalarni xavfli ishlarni qilishga undashi mumkin bo'lgan ovozli yordamchi o'yinchoq.3. Shaxsiy xususiyatlarga asoslangan insonlarning biometrik tasnifi: ularga jins, etnik kelib chiqish, diniy qarashlar, siyosiy qarashlar va falsafiy e'tiqodlar kiradi. 4. Umumiy maqsadli ijtimoiy skoring: odamlarni shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy xatti-harakatlari va onlayn xarid qilish yoki ijtimoiy tarmoqlar bilan o'zaro aloqalar kabi xatti-harakatlari asosida baholash uchun sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish. Masalan, biron bir insonning o'zini tutish, xarid qilish yoki ijtimoiy tarmoqlar bilan o'zaro aloqada bo'lish orqali olingan ijtimoiy reyting tufayli ishga qabul qilish yoki kredit olishdan bosh tortishi vaziyatlari, bu esa asossiz tanlov bo'lishi mumkin.5. Masofaviy real vaqtda biometrik identifikatsiya (jamoat joylarida): biometrik identifikatsiya tizimlari butunlay taqiqlanadi. Huquqni muhofaza qilish organlari uchun istisnalar, sud va nazorat komissiyasining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu faqat oldindan belgilangan maqsadlar uchun mumkin, masalan, jinoyat qurbonlarini maqsadli qidirish, terrorizmning oldini olish va jiddiy jinoyatchilar yoki gumon qilinuvchilarni qidirish (masalan, odam savdosi, jinsiy ekspluatatsiya, qurolli talonchilik, ekologik jinoyatlar).6. Insonlarning hissiy holatini baholash: bu ish joyidagi yoki ta'lim sohasidagi sun'iy intellekt tizimlariga tegishli. Tuyg'ularni identifikatsiyasi, agar u xavfsizlikni ta'minlash uchun mo'ljallangan bo'lsa (masalan, haydovchining uxlab qolishini aniqlash uchun) yuqori xavfli dastur sifatida ruxsat berilishi mumkin.7. Profilaktik nazorat: insonlarning shaxsiy fazilatlarini asosida kelajakda jinoyat sodir etish xavfini baholash. 8. Insonlarning yuz rasmlarini yig'ish: Internetda mavjud bo'lgan yuz rasmlarini yoki xavfsizlik kameralaridan olingan yozuvlarni maqsadsiz yig'ish yordamida ma'lumotlar bazalarini yaratish yoki kengaytirish taqiqlanadi. Ushbu sohalarga tegishli sun'iy intellekt tizimlari Yevropa Ittifoqida taqiqlanadi.

Yuqori xavfli SI tizimlari Yevropa Ittifoqi taxnologik bozorida ruxsat etilgan va eng tartibga solinadigan tizimi hisoblanadi negaki bu daraja allaqachon tartibga solingan mahsulotlarning xavfsizlik komponentlarini, odamlarning salomatligi va xavfsizligiga, ularning asosiy huquqlariga yoki atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lum sohalarda avtonom SI tizimlarini o'z ichiga oladi. Ushbu sun'iy intellekt tizimlari ishlamay qolganda yoki noto'g'ri ishlatilganda katta zarar yetkazishi mumkin.

Uchinchi xavf darajasi – bu manipulyatsiya yoki aldash xavfi mavjudligi bo'lgan sun'iy intellekt tizimlarini o'z ichiga olgan cheklangan xavf. Ushbu toifaga kiruvchi SI tizimlari o'z ishida shaffof bo'lishi zarur, ya'ni odamlar SI bilan o'zaro aloqa qilinganligi to'g'risida ma'lumot berilishi kerak. Masalan, chatbotlar cheklangan xavf toifasiga kiradi. Bu, ayniqsa, sun'iy intellektning generativ tizimlari va ularning tarkibiga to'g'ri keladi.

Yevropa Ittifoqining SI qonunida tasvirlangan eng past xavf darajasi bu – minimal xavfdir. Ushbu daraja spam-filtrlar kabi yuqorida aytib o'tilgan toifalarga kirmaydigan boshqa barcha SI tizimlarini o'z ichiga oladi. Minimal xavfli SI tizimlarida hech qanday cheklovlar yoki majburiyatlar mavjud emas. Biroq, inson nazorati, adolat va kamsitishning yo'qligi kabi umumiy tamoyillarga amal qilinishi tavsiya etiladi. “

SI tomonidan Shaxsiy ma'lumotlar himoyasining buzilishi, diskriminatsion qarorlarni qabul qilishi orqali insonlarning ma'naviyati va sog'lig'iga ta'sir ko'rsatishi, uning ishlab chiqarayotgan va taklif etayotgan yechimlarida shaffoflik va nazoratning yetishmasligi asosiy muammolarni insoniyat hayotida vujudga keltiradi, ammo javobgarlikka tortish, uni faoliyatini cheklash noaniq holatda qolishi ham achinarli holat. Misol uchun: avtanom SI o'rnatilgan avtomobil insonning aralashuvisiz boshqarilayotgan vaqtda avariya bo'lsa, bu voqea kim javobgar bo'ladi, avtomobil egasimi ishlab chiqaruvchimi yoki algoritm dasturchi?

Ko'plab SI tizimlari “qora quti” prinsipida ishlaydi – ya'ni u qanday qaror qabul qilganini, nima uchun bunday qilganini tushuntirib berolmaydi. Bu esa inson huquqlari, ayniqsa, adolatli sud muhokamasi huquqi nuqtai nazaridan xavf tug'diradi. Shu boisdan yuqoridagi barcha muammolarga quyidagilarni yechim sifatida taklif etaman:

1. Maxsus huquqiy bazani shakllantirish. SI faoliyatini xavf darajasiga qarab tasniflash va har bir daraja uchun alohida tartiblar belgilash lozim. Masalan: Past xavfli SI (ta'limiy dasturlar, musiqiy tavsiyalar). Yuqori xavfli SI (sud, tibbiyot, xavfsizlik). Taqiqlangan SI (insonni manipulyatsiya qiluvchi yoki nazorat qiluvchi tizimlar) buning uchun esa Yevropa Ittifoqining sun'iy intellekt to'g'risidagi qonunini ratifikatsiya qilish talab etiladi;

2. Javobgarlik mexanizmini ishlab chiqish .SI bilan bog‘liq har qanday salbiy holatda aniq subyekt – ishlab chiquvchi, foydalanuvchi yoki egasi – javobgarligi qonun bilan belgilanishi zarur.

3. Shaffoflik va audit tizimi. Har bir SI tizimi mustaqil ekspertlar tomonidan etik va huquqiy ekspertizadan o‘tkazilishi, uning qarorlarini izohlash imkoniyati bo‘lishi shart.

4. Shaxsiy ma’lumotlarni himoyalashni kuchaytirish.SI uchun maxsus ma’lumot yig‘ish etikasi ishlab chiqilishi va u xalqaro darajada qat’iy nazorat qilinishi kerak.

5. Xalqaro hamkorlik SI ning chegaralar yo‘qligini inobatga olib, xalqaro normalar va standartlar yaratilishi, BMT, YUNESKO va boshqa tashkilotlar tomonidan yuqoridagi takliflar inobatga olinib qo‘llab-quvvatlanishi muhimdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam ,sun‘iy intellekt insoniyat hayoti va taraqqiyoti uchun ajralmas qisimga aylanayotgan bo‘lsa-da ,uni insoniyat kelajagi uchun foydalari global darajada to‘laligicha yakunlanmagan . O‘zbekiston uchun ham bu yo‘nalishda istiqbolli faoliyatni ,aniq strategiyani yo‘lga qo‘yish ,xorij tajribasidan foydalanish va milliy qonunchilikni takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir va ularni amalga oshirishda barchamiz, faqatgina texnologik emas ,balki huquqiy va etik jihatdan ma’suliyatni to‘la anglagan holda jamiyatimiz va yosh avlodning kelajagi uchun SI ning rivoji va uning takomillashish borasidagi barqaror yo‘llarini ishlab chiqishimiz zarurdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Evropa Komissiyasi. (2021). Artificial Intelligence Act – Proposal for a Regulation of the European Parliament and of the Council laying down harmonised rules on artificial intelligence. Brussels: European Commission. <https://eur-lex.europa.eu>

2. Floridi, L., & Cowls, J. (2019). A Unified Framework of Five Principles for AI in Society. Harvard Data Science Review, 1(1). DOI: <https://doi.org/10.1162/99608f92.8cd550d1>

3. Jobin, A., Ienca, M., & Vayena, E. (2019). The global landscape of AI ethics guidelines. Nature Machine Intelligence, 1(9), 389–399. DOI: <https://doi.org/10.1038/s42256-019-0088-2>

4. UNESCO. (2021). Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. <https://unesdoc.unesco.org>

5. Raji, I. D., & Buolamwini, J. (2019). Actionable Auditing: Investigating the Impact of Publicly Naming Biased Performance Results of Commercial AI Products. Proceedings of the 2019 AAAI/ACM Conference on AI, Ethics, and Society, 429–435. DOI: <https://doi.org/10.1145/3306618.3314244>

6. Buhmann, A. (2020). Artificial Intelligence and Transparency: Three Scenarios. Philosophy & Technology, 33(3), 543–560. <https://doi.org/10.1007/s13347-019-00370-6>

7. Rahmonov, A. (2023). Sun’iy intellekt va shaxsiy ma’lumotlarni huquqiy muhofaza qilish masalalari. O‘zbekiston huquqshunoslik jurnali, 4(12), 56–67